



## INGALYATSIYA MUOLAJALARINI O'TKAZISH.

*Farg'ona shahar Abu Ali Ibn Sino nomidagi*

*Jamoat salomatligi texnikumi*

*Hamshiralik ishi kafedrasi o'qituvchisi*

***Oxunova Feruzaxon G'anijon qizi***

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada odam organizmiga dorivor moddalarning ta'siri, dori vositalarini inson organizmiga yuborish usullari haqida aytib o'tilgan

**Kalit so'zlar:** ingalyatsiya, dispers, aerosol, ingalyator

**Inhalation procedures.**

**Annotation:** This article discusses the effects of medicinal substances on the human body, methods of administering drugs to the human body.

**Keywords:** inhalation, dispersion, aerosol, inhaler

Hozirgi kunda , ayniqsa qish faslida yuqori nafas yo'llari kasalliklari ko'p kuzatilmoque da. Yuqori nafas yo'llari kasalliklarida ingalyatsiya muolajalari samarasi yuqori hisoblanadi.

**Nafas yo'llari kasalliklarida ingalyasiya muolajasini qo'llanilish tartibi.**

Ingalyasion terapiya maxsus apparatlar - ingalyatorlar yordamida o'tkaziladi. Ular dori moddalarini kerakli o'lchamda disperslab (maydalab) havoga gaz ko'rinishida purkab, bemorga nafas bilan birga olish uchun uzatib beradi. Purkash asosan mexanik yo'l bilan pulverizator tipidagi forsunkalar yordamida amalga oshiriladi. Eng mustahkam va yuqori disperslangan aerozollarni ultratovush purkagichi orqali olish mumkin. Aerozol zarrachalari elektr zaryadlangan bo'lishi mumkin. Elektr bilan zaryadlangan aerozollar (elektroaerozollar) yuqori mustahkamligi va faol farmokodinamik ta'siri bilan ajralib turadi. Bu ayniqsa manfiy zaryadli aeroionlar uchun xosdir.Tibbiy sanoat ingalyasion aerozolterapiya uchun turli xil apparatlarni ishlab chiqarmoqda. Individual qo'llash uchun portativ IP-2 apparatining elektr isituvchi moslamasti bo'lib, uy sharoitida ham foydalanish mumkin. Bu apparat bilan dori moddalari nafas yo'llariga purkaladi. Yuqori nafas yo'llarining, traxeyaning, yirik va o'rtacha bronxlarning kasalliklarida bu apparatlar keng qo'llaniladi. Shuningdek, portativ ingalyatorlar qatoriga AI-1 (aerozolli ingalyatorlar), PAI-1, PAI-2, Aerozol P-1 apparatlari kiradi. Individual qo'llash uchun IKP-M tipidagi, xaltaga solib yuriladigan ingalyatorlar hamda suyuq dori moddalarini purkash uchun Kameton, dori kukunlarini mexanik, purkash uchun Spixoler tipidagi ingalyatorlar qo'llaniladi. Statsionar apparatlardan biri - universal Aerozol U-1 aerozol – ingalyatorii bo'lib, uni fizioterapiya bo'limining ingalyasiya xonasida erkin yurgizib qo'llash mumkin. Bu apparat yordamida birdaniga 3ta



odamga muolaja o'tkaziladi. Aerozol zarrachalarining o'lchami 5-7 mk. Aerozol – K1 statcionar apparat bo'lib, bunda birdaniga 6ta bemorga ingalyasiya muolajasi o'tkaziladi.

### Tabiiy ingalyatsiya o'tkazish



**Ingalyasiya o'tkazish tartibi.** Davo muassasalarida individual va guruh bo'lib ingalyasiya o'tkazish uchun maxsus xona – ingalyatorlar ajratilgan bo'lishi, ingalyatorlarning individual niqoblari va uchliliklari sterillangan bo'lishi kerak. Hamshira ingalyatoriya xonasining tozaligini nazorat qilib, vaqt – vaqt bilan shamollatib, dezinfeksiya qilib turishi lozim. Ingalyasiya uchun bug'li, iliq namli, namli, moyli, kukunli aerozollar qo'llaniladi. Ularning davo ta'siri qo'llaniladigan dori moddalarining farmokologik tarkibiga bog'liq. Ingalyasiya uchun qo'llaniladigan dori moddalari sifatida balg'am ajratuvchi, desensibilizatsiyalovchi, bronxlarning o'tkazuvchanligini tiklovchi, tomirlarni kengaytirib, qonga shimiluvchi preparatlarni ishlatish mumkin. Ingalyasiya usuli bilan organizmga har xil o'simlik moylari (shaftoli, bodom, oblepixa), mineral suvlarni kiritish mumkin. Ingalyasiya uchun ko'pincha quyidagi dori aralashmalar qo'llaniladi.

Balg'am yaxshi ajralishi uchun aralashma (bitta ingalyasiya uchun 25-100 ml aralashma sarflanadi) natriy gidrokarbonat 2g, distillangan suv 100ml.

Kaliy yod 0,25g, natriy yod 0,25g, natriy gidrokarbonat 1g, distillangan suv 100ml. Mineral suv(borjom, yessentuki va boshqalar).

Moyli aralashma. (bitta ingalyasiya uchun 0,5- 1,0 ml aralashma sarflanadi )

- mentol 0,5 g, shaftoli moyi 20 ml;
- mentol 0,5 g, evkalipt moyi 20 ml;



- oblepixa moyi, na'matak va boshqa moylar.

Bronxolitik ta'sir ko'rsatuvchi aralashma (bitta ingalyasiya uchun)

0,5% — 2 ml euspiran (izadrin) eritmasi, 4 ml distillangan suv;

1% — 2ml novokain eritmasi, 3% — 1 ml efedrin eritmasi;

5% — 1 mg askorbin kislota eritmasi, 5 ml distillangan suv;

2% — 2 ml eufillin eritmasi, 4 ml distillangan suv.

Antibiotiklar:

1 000 000 TB penitsillin, 0,5 % — 100 ml novokain eritmasi (1 ta ingalyasiya uchun 25 ml);

0,5 g oletetrin, 2 g askorbin kislotasi, 100 ml distillangan suv (1 ta ingalyasiya uchun 25 - 50 ml).

Bundan tashqari, ingalyatsiya uchun shifokor ko'rsatmasi bo'yicha shifobaxsh o'tlarning damlamalari, piyoz va sarimsoqpiyoz sharbati, turli ferment moddalar va boshqa dori moddalari ham keng qo'llaniladi.

### Yulayzer apparatlari bilan ingalyatsiya o'tkazish



Shamollashni davolashga yordam beruvchi moslamalardan biri – bu **Yulayzer®** nebulayzerlaridir. Shamollashda bu «aqli moslama» orqali dorivor modda to‘g‘ridan-to‘g‘ri nafas yo‘liga yetkaziladi. Buning natijasida tez terapevtik ta'sirga erishiladi va dori qonga so‘rilmaganligi sababli tizimli nojo‘ya ta'sirlarning oldi olinadi.

Albatta, Yulayzerning bir o‘zi dorilarsiz natija bermaydi. Buning uchun shamollashning asosiy sababchilari bo‘lmish virus va bakteriyalarni mahalliy davolovchi ingalyatsion preparat kerak. Bunday preparatlaridan biri dekasan ingalyatsion antiseptigidir. **Yulayzer** yordamida **dekasan** to‘g‘ridan-to‘g‘ri nafas yo‘llariga tushadi va virus va bakteriyalarga qarshi ta'sir qiladi. U bir marotaba



qo‘llaniladigan maxsus konteynerlarda ishlab chiqariladi – bu ishlatishda qulaylik keltirib chiqaradi va preparatning sterilligini ta’minlaydi.

**Dekasan®** ingalyatsion antiseptigi – nafaqat shamollashning belgilarini, balki uning sababchilari bo‘lmish virus va bakteriyalarni yo‘qotadi!



## Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.K.E Ulho'jayeva, B.T Xudoyberganova "Fizioterapiya va tibbiy reabilitatsiya.
- 2.Hamshiralik ishi asoslari K.U.Zokirova
- 3.Bemorlarni uyda vashifoxonada parvarish qilish F.G.Nazirov
- 4.Umumiy amaliyot hamshiralari uchun amaliy ko'nikmalar to'plami A.Godoev
- 5.Hamshiralik ishi asoslari Q.S.Inomov

### Qo'shimcha adabiyotlar.

- 1.Axmedov SH.A. «Anatomiya i fiziologiya s patologicheskimi osnovami». Toshkent, Tasvir nashriyoti, 2009 god.
- 2.Ziyamutdinova G.X., Axmedov SH.A. «Normal anatomiya va fiziologiya». Toshkent, O'zbekiston milliy entsiklopediyasi nashriyoti, 2009 yil.
- 3.«Xammabop tibbiyot qo'llanmasi». Toshkent, 2006 y.

### Internet saydlari:

[www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz).

[www.google.co.uz](http://www.google.co.uz)

[www.medical.uz](http://www.medical.uz)